

Ichimlik suvi o'chirilayotgan mahallalarda maxsus texnikalar yordamida suv yetkazib beriladi.



Termiz shahri Tinchlik mahallasida joylashgan "Shimoliy darvoza" guruhli suv ishlab chiqarish inshootida ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shu munosabat bilan bugun, 5-iyun kuni soat 09:00 dan 17:00 gacha Termiz shahrining quyidagi mahallalarida suv ta'minoti vaqtincha o'chiriladi:

- Tinchlik;
- Baynalmilal;
- Saxovat;
- Navro'z;
- Farhod;
- Do'stlik;
- Shodlik;

- "Abdurahmon Jomiy";
- Majnuntol mahallalari.

Suv ta'minoti vaqtincha o'chirilayotgan mahallalar aholisiga zaruratga ko'ra ichimlik suvi maxsus texnikalar yordamida yetkazib beriladi.

«Surxondaryo suv ta'minoti» MChJ yetkazilgan noqulayliklar uchun iste'molchilardan uzr so'raydi.